

**MAHALLABAY ISHLASH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI
LAOG(LOYIHANI AMALGA OSHIRISH GURUHI)NING BUXORO VILOYATI
BO'YICHA KOORDINATORI LAVOZIMIGA OCHIQ TANLOV E'LON QILADI**

LAVOZIM MAJBURIYATLARI

1. Viloyatda ma'lumot, tushuntirishlar va yordam so'rovlari bo'yicha mintaqaviy koordinator sifatida faoliyat yuritish.
2. Loyiha yuzasidan viloyatda tushuntirishlar va axborot sessiyalarini o'tkazish maqsadida davra suhbatlari tashkil etish.
3. Viloyatda loyiha doirasida amalga oshiriladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar va yaratiladigan imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni potensial benefitsiarlar e'tiboriga muntazam ravishda yetkazib borish choralari ko'rish.
4. Loyiha faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida loyihaning viloyatdagi hamkorlari va ishtirokchilar bilan muntazam aloqada bo'lish.
5. Loyihaning viloyatdagi hamkorlari loyiha hujjatlari shartlariga muvofiqligini nazorat qilish.
6. Viloyatda loyiha doirasida amalga oshirilayotgan faoliyatning bajarilishini nazorat qilish uchun joylarga tashrif buyurish.
7. Tegishli tadbirlar bo'yicha choraklik hisobotlarni tayyorlash maqsadida monitoring qilish va baholash.

QO'YILADIGAN TALABLAR

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, biznes boshqaruvi yoki shunga o'xshash ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumot.

Kichik korxonalar dasturlarini tashkil etish va amalga oshirish tajribasi – kamida 3 yil.

Yaxshi muloqot qobiliyatlari.

O'zbekistondagi kichik biznes tizimi va sohada duch kelinayotgan muammolarni chuqur tushunish.

“Climate-smart” va “yashil” texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilishga tegishli bilim yoki tajribaga ega bo'lishiga ustunlik beriladi.

Yuqori kompyuter ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ingliz tilini bilishga ustunlik beriladi.

ISH SHAROITLARI

Ish kunlari: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

Ish vaqti: 09:00 dan 18:00 gacha.

Ish joyi: Toshkent shahri.

TASHKILOT TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Manzil: O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Qoratosh ko'chasi 1-uy, 10-qavat.

Telefon raqam: +998712386933

Elektron manzil: fcd.agency@mineconomy.uz va sredp.ade@gmail.com

Qo'shimcha ma'lumot: LAOG (Loyihani amalga oshirish guruhi) Xalqaro moliya instituti ishtirokida 2022–2026-yillar davomida respublikamizda qishloq tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihani amalga oshirish uchun tashkil qilinadi.

Ma'lumotnomangiz (obyektivka, rezyume, CV)ni siz talabgor bo'lgan lavozimni aniq ko'rsatgan holda yuqorida keltirilgan elektron manzillarga yuborishingizni so'raymiz.